

*Ortiqov Muzaffarxo'ja Azizxo'ja o'g'li**Guliston davlat universiteti talabasi**Ilmiy rahbar: Dildora Annakulova Baymuratovna**Guliston davlat universiteti o'qituvchisi***SAMARQAND DOSTONCHILIK MAKTABI SHAKLLANISHIDA NURMON SHOIR
ABDIVOY O'G'LINING IJODIY MEROSINING AHAMIYATI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand dostonchilik maktabining rivojlanishida muhim rol o'ynagan Nurmon shoir Abdiboy o'g'lining ijodiy faoliyati va uning bu maktabning shakllanishiga qo'shgan hissasini o'rganishga bag'ishlangan. Asarda Nurmon shoirning ijodiy merosi, dostonchilik an'analari va u orqali xalq og'zaki ijodini boyitishdagi hissasi yoritiladi va shoirning xalq dostonlariga qilgan ijodiy ishlovi, janr imkoniyatlarini kengaytirishdagi xizmatlari va Samarqand hududida dostonchilik maktabining asos solinishidagi o'zini o'z aksini topgan. Nurmon shoirning o'ziga xos ijodiy uslubi va obrazli ifoda vositalari maktabning an'alarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi ko'rsatiladi. Nurmon shoir Abdiboy o'g'li faoliyati orqali Samarqand dostonchilik maktabi tarixiy va madaniy merosini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodiyoti va dostonchilik san'atining zamonaviy avlodga yetkazilishidagi muhim jihatlar ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Samarqand dostonchilik maktabi, Nurmon shoir Abdiboy o'g'li, dostonchilik an'analari, xalq og'zaki ijodi, folklore, madaniy meros, badiiy uslub, epik janr

O'zbek folklori nihoyatda boy va turli janrlarga ega, ularda xalqimizning maishiy turmushi, ko'p qirrali madaniyati, odamgarchilik xosiyati va yaxshi niyatlari, ozodlik, erkinlik, birodarlik, vatanparvarlik g'oyalari, ezgulik bilan yovuzlikning murosasiz kurashi, oliy insonparvarlik va dushmanga cheksiz nafrat kabi olijanob fazilatlar kuylanadi. Xalq orasida eng keng tarqalgan va sevimli janrlardan biri epik asarlar, dostonlar bo'lib, ular bizning davrimizgacha uzoq o'tmish zamonlardan og'zaki poeziya an'analari vositasida yetib kelgan. Dostonlarni avaylab saqlab kelgan va zo'r san'at bilan ijro etuvchi shoirlar yoki baxshilar asli mehnatkash aholi orasidan chiqqan dehqon yoki cho'ponlardir. Ular, tabiiyki, mehnatkash xalqning o'y-fikrlari va orzu-niyatlarini zo'r mahorat bilan ifodalab kelganlar. Yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan dostonchilik maktablarining tarkibiy qismi sanalgan Samarqand dostonchilik maktabining shakllanish jarayonini maxsus o'rganish asosiy vazifa etib qo'yildi. Hozirgi o'zbek xalq shoirlari go'zal va boy epik merosimizni ota-bobolardan o'rganib, ularning saqlabgina qolmay, balki davr talabiga hamohang jo'shqin ijodlarida badihago'ylik (improvizatsiya) qiluvchi iste'dodli ajoyib kuychilar hamdir. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko'rinishda bo'lsa-da, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o'z fikr-g'oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi.

Baxshilik san'ati markazi O'zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan

ajralib turadi. Dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazmda hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan. Xalq orasida Yo'ldoshbulbul, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ilo'kan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda xotira qudratiga ega bo'lgan Po'ltan shoir yetmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni o'z ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli xotiraga, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega bo'lganligidan dalolat berar edi. Fozil Yo'ldosh o'g'li 60 ta, Ergash Jumanbulbul o'g'li 50 ta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarning ba'zilar faqat doston aytsa, ba'zilar o'zlari ham dostonlar to'qiganlar.

Doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to'y-hashamlar ham baxshilarsiz o'tmagan, tinglovchilar baxshini to'rga o'tqazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Baxshilardan Shernazar Berdinazar o'g'li yetti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar o'z iqtidorlari, so'zga chechanligi, soz chalishdagi mahorati bilan o'zaro bellashganlar. Mintaqada o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Ilerobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turgan.

Hozirgi kunda o'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari-baxshilik san'atining ajoyib markazlari aniqlangan. Shulardan Fozil Yo'ldosh o'g'li mansub bo'lgan Bulung'ir dostonchilik maktabida ko'proq qahramonlik dostonlari badiiy jihatdan mukammal tarzda kuylangan. Bir necha versiya, o'nlab variantlar yaratilgan "Alpomish" qahramonlik dostonining Qo'ng'iro't versiyasidagi eng oliy va badiiy barkamol namuna sifatida Fozil Yo'ldosh o'g'li variantining qabul qilinishi bejiz emas. Professor Hodi Zarifov qayd etgan Amin baxshi ham shu maktab vakili edi. Bu maktab shuhratiga qadimda Muhammad shoir, Sultonmurod Suyar, Rahimbulbul kabi baxshilar o'z ijodlari va ijrolari bilan munosib hissa qo'shganlar. Ular "Alpomish", "Oysuluv", "Hasanxon", "Chambil qamali" kabi dostonlarni alohida mahorat bilan ijro etganlar. Ma'lum bo'ladiki, Samarqand dostonchiligida nasr badiiy jihatdan nazm bilan tenglasha oladi. Saj'dan iborat Oqqiz ta'rifida o'nlab qofiyalangan so'zlar uchraydi. Ular orasida hazil, kulgili o'rinlar ham bor. Demak, nasrda badiiy mukammallikka erishilgan. She'riy parchalar esa ikki xil bo'lar ekan. Ko'pincha ularda voqea bayon etiladi: otda chopish, jang lavhalari, savol-javoblar, ziyofat tasviri va hokozolar.

Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh, Pulkan shoir, Islom shoir, Bekmurod Jo'ravoy o'g'li kabi elning sevikli dostonchilarining faoliyati tahsinga sazovordir. Biz yuqorida qayd etgan zabardast baxshi-shoirilar qatorida bobomiz Nurmon shoirning ham o'z o'rnini bor deb hisoblaymiz.

1935 yil Xodi Zaripov tahriri ostida to'plangan Tarixiy ma'lumot murojaat kilamiz. Asarda Nurmuxammad bobomiz to'g'risida qo'yidagicha ta'rif berilgan. Nurmon bo'loli (kelishgan, baquvat) azamat yigit edi. Otni, chavandozlikni yaxshi ko'rar, kishilarning otini so'rab olib, ko'pkari chopishni mashq qiladi, usta chavandoz bo'lib chiqadi; Karmana, Buxoro, Qarshi, Kerki tomonlarda borib ko'pkari chopadi, atoqli ko'pkariboz bo'ladi. Nurmon shoirning ug'li Sultonmurodxojidan eshitganimiz bor xaqiqatda Nurmon shoir bobomiz atoqli ko'pkariboz

bo'lib, Buxoro amirining otlarini xam ko'pkarida chopganligi to'grisida bizga hikoya sifatida aytishgan. Nurmon shoir - yoshlikdan badiiy adabiyot bilan qiziqgan, do'mbra chertishni allakachon o'rganib olgan shoirlarning doston aytishuvlarida qatnashib ulardan parchalar o'rganib olgan edi. Ko'pkaribozlik qilib yurganida dostonchilarni ko'p tinglar edi, dostonchilikka bo'lgan havasi oshdi, termalar va doston bo'laklarini o'rganib do'mbra bilan kuylab yurdi deyiladi. 30 yoshida otasi vafot etgach, oilani boqish faqat Nurmuhammad gardaniga tushib qoladi, Nurman ayriliqning achchiq damlarida soz va do'mbraga ko'prok berildi. Og'ir mehnat, qashshoq turmush, cheksiz ekspluatatsiya zulmlarini badiiy ifodalar bilan kuylab, terma asarlar yarata boshladi, - deb yozadi.

Bobomiz Nurmon shoir deb nom chiqarishi uning o'zi kabi alamzadalar dardini, zolimlarga qarshi qahr-g'azabini el o'rtasida, gurunglarda, saroylarda baralla ochik-oydin xajvga olishida namoyon bo'lgan. Va'da berib labzida turmaydigan, xasis boylardan biri Do'stqoraboy o'rtasidagi xajviyaga e'tibor beraylik.

Do'stqora! Hoy Do'stqora!

Tepadan pastga qara.

Va'da qilganing sarka,

Sarkamni ber Do'stqora.

Nurmon shoir o'z termalarida inson tashvishi, dardu alami, intilishi keng o'rinni egallaydi, deb yozadi prof. B.U.O'rinboev. Bizni fikrimizni shoirning "Chigirtka" termasi to'la tasdiqlaydi. Chigirtka adolatsiz feodal tuzumi davrida dahshatli ofat bo'lib, u yurtga ochlik, qahatchilik keltirgan.

Elning boshliqlari bu ofatni oldini olishga qurbi yetmagan. Bobomiz bu haqda "Chigirtka" terminini yozadi.

Chigirtkani oldi keldi ulusga,

Maxmayusuf xabar qildi bo'lusga.

Bo'lus turib arza yozdi o'rusga,

Dexqonlarni zor yig'latdi chigirtka...

Bobomiz termalar ijod qilish bilan kifoyalanib qolmay, xayot muammolarini epik ko'rinishda ifodalashga harakat qilgan. Uning "Namoz" dostoni bunga yorqin misol bo'la oladi. 1939-yilda yozilgan xrestomatiyaga ham Nurmon shoir ijodi haqida berilgan ma'lumotlarda uning avtobiografiyasi, do'mbra termasi va "Namoz o'g'ri" dostoni berilgan.

Do'mbra termasidan to'rtlik

Qulog'ing gujimdan, jasading olcha,

Guldirab chiqasan fayzli kecha.

Ulfating seni bordir oltmishcha,

Har maqomga chuguvergin shu kecha.

Majlisga kosogul bo'lgan do'mbaram.

Yuqorida keltirilgan termada bobomiz 40 yoshda «Saroyqo'rg'onlik» Abduxoliq baxshiga shogird tushadi, chunki o'sha paytlarda Abduxoliq baxshi o'z zamonasining o'sha baxshilaridek ekanligi qayd etilgan. Bobomiz ikki yil davomida Abduxoliq baxshiga ergashadi, Abduxoliq baxshi unga yaxshi tarbiya berganligi yozilgan! Haqiqatda Abduxoliq baxshidan baxshichilik sirlarini o'rgangan bobomiz Nurman shoir deb nom qozonganligi yozilgan.

Nurmon shoirning “Namoz” dostoni isyonkor shaxs, mard kurashchi, qasoskor xalq yo’lboshchisi, Namozga nisbatan xalq madhiyasidek baralla yangradi. Shunisi xarakterliki Namozning ayrim yigitlarining nomlari qo’shiqda ham aynan keltiriladi. Bu shoirning sodir bo’lgan tarixiy voqealarning bevosita shohidi bo’lganligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, shoir tarixiy haqiqatdan chekinmaslik uchun Namoz va uning qasoskor yigitlarining o’ziga xos xususiyatlarini aniqroq ifodalashga harakat qiladi. Xalq qahramoni Namoz boshchiligidagi inqilobiy harakat Turkistonda barcha yuqori tabaqa hukmdorlar: amir va hokimlarga, boy va amaldorlarga sira ham tinchlik bermadi. Ana shu munosabatni Nurmon shoir o’ta yorqin va ta’sirchan ifoda etgan. X.Zarifiy ma’lumotlariga etibor qaratsak Nurmon shoir 1923-24 yillar qamoqdan keyin falaj bo’lib, qo’shiq aytish uchun xalq orasiga chiqolmaydigan holga kelib qoldi, deyiladi. Padari buzrukvorimiz Sultonmurod xojidan eshitganlarimiz, Bobomiz Kattaqo’rg’onni “Samanka” qamoqxonasidan chiqgach davolanadi, lekin qaddini rostlab yuraolmaydigan, emaklab yuradigan bo’lib, qoladi. O’zbekiston Respublikasining ma’muriyati bobomiz Nurmon shoirni ijod qilishi uchun nafaqa tayinlaydi, ot ulov beradi va doston hamda termalarni yozib olish uchun kotib tayinladi. O’sha kotib Kattaqo’rg’onda birinchi maktabni tashkil etgan Zarif Qodirov ekan, I. Bekmurodov shu insonni qizlari Lamiga opa bilan bo’lgan suhbatlarini “Kattaqo’rg’on tongi” gazetasidagi maqolaga qayd etadi. O’sha maqoladagi Zarif Qodirov va Nurmon shoir suratini bizga “Lenin yo’li” gazetasining bo’lim mudiri Samariddin Sirojiddinov (marhum, bobongizni eslab yurasizlar, bu tarixiyni xujjat deb topshirgan edilar) 1961 yilda 41-son maktab direktori bo’lib ishlagan I.Bekmurodov iltimosiga ko’ra otam o’ kishiga bergan. Otam Sultonmurod hojidan eshitishimizcha 1925 yilda Nurmon shoirga hukumat, minib yurish uchun ulov sifatida, ot ajratganda shoir o’zi otga minaolmas edi, men yoshligimda otamni ko’tarishga kuchim yetmas, uning ukalari Buta bobomiz bilan avval tandirni yelkasiga chiqarib qo’yar edik, keyin otni tandirni oldiga olib keltirsak so’ngra o’zi tirmashib otga minib olar va meni orqasiga mindirib chaqirilgan to’y marakalarga, sayillarga borar edik, shul tariqa men ham otamdan do’mbira chertishni o’rganganman der edilar.

Akademik X.Zarifiy Nurmon shoir 15 dan ortiq dostonlarni bilar edi deb yozadi o’zbek folklklarida, shulardan: Alpomish, Gurg’o’li, Yusuf-Ahmad, Ravshan, Avazxon va hokazolar. Bu ma’lumotlar domla Zarif Qodirov to’plagan materiallarga asoslanib yozilgan. Otamizdan etishganlarimizni va H.Zarifiy to’plagan Xrestomatiyada keltirilgan tarixiy ma’lumotlarga hamda Jizzax davlat pedagogika insitituti professorlari B.O’rinboev, U.Jumanazarov, tarixshunos olimlar S.Sirojiddinov, N.Norqulov, I.Bekmurodovlarni maqolalariga asoslanib ushbu ma’lumotlarni ochiq matbuotga xavola qilmoqdamiz. 1926 yilda Samarqand shahrida baxshi-shoirnlarning qurultoyi o’tkaziladi. Ushbu anjumanda bobomiz Nurmon shoir ham o’z ijodiy asarlari bilan qatnashadi. Ushbu davrada qatnashayotgan Nurotalik Ergash Jumanbulbul o’g’li Nurmon shoir nolishlari, marsiyalari, xajviyalarini eshitar ekan shoirning faoliyatiga yuksak baho beradi, Nurmon shoirning nolalarini eshitgan Ergash Jumanbulbul o’g’li Nurmon shoirga baho berish uchun uning oldiga kelib tasannolar aytib, “Men Ergash Jumanbulbul o’g’li bo’lsam, seni o’zing bulbul ekansan deb” olqishlagan ekanlar. Faqat 1936 yillarda o’tkazilgan tahdidlarda Bobomizga sen F.Xujaev va A.Ikromovlarni kuylashni bas qilgin deya dashnom berilgan. O’sha tintuv va tahdidlar sabab bo’lsa kerak bobomizni faoliyatiga tegishli dostonlarni adabiyotda chop etish taqiqlangan bo’lsa ajabmas.

1917-yil oktyabr inqilob bilan so’ng, bobomizga O’zbekiston ma’muriyati tomonidan nafaqa tayinlanadi, doston va termalarini yozib olish uchun Kattaqo’rg’onlik Zarif domlani kotib etib tayinlashadi. Bu to’g’rida tarixchi, muarrix I.Bekmurodov (marxum) va jurnalist N.Dusanovlar imzosi bilan “Kattaqo’rg’on tongi” shahar gazetasida 2000-yil 12-oktyabr sonida “Birinchilik

ma'suliyati" sarlavhali maqolasida bayoni berilgan. Unda Nurmon shoir va Zarif Qodirovlarning 1927-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tushgan surati e'lon qilingan edi. Ushbu maqolada Zarif domlaning Lamiga ismli qizi keksayib qolgan chog'larida otasi to'g'risida ma'lumot berar ekan uni xalq og'zaki ijodiga qiziqishiga sabab ko'plab qulyozmalarini aloxida-aloxida daftarlarga ko'chirilgan xolda to'plaganligini va ularni Kattaqo'rg'on shahar tarixiy o'lkashunoslik muzeyiga topshirganliklari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Bular orasida 1928-yilda Nurmon shoirdan Zarif Qodirov tomonidan yozib olingan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Qalandarshox" kabi dostonlar bulgan. Shuningdek, "Kuntug'mish", "Abdullo qotil", "Namoz" dostonlarini foto albomlari ham bo'lgan, lekin, kimlardir turli baxonalar bilan (domlaning uyidan) olib ketishgan va qaytarib berishmagan.

Bobomiz oktyabr inqilobidan keyin unga ko'rsatilgan imtiyozlardan foydalanib ko'plab termalar, hajviyalar, dostonlar ustida ishlaganligi to'g'risida otamiz Sultonmurod xojining og'zidan eshitganmiz. Uning aytishicha "Temir yul", "Dehqoni bor o'zbekning", "Xalk nomzodi", "Usmon baraka", "Sho'ro beklari", "Yashasin Oxunboboev", "Yashasin Fayzullo Xo'jaev", "Yashasin o'rtoq Ikromov" kabi termalarini xalq, omma o'rtasida ko'ylaganlar. Otamning ajoyib fazilatlaridan biri, u kishi bolajon inson edilar. Farzandlari, nevaralari ham bo'lsa, otamdan qolgan do'mbram deb, do'mbrani qo'lga olib quloqlarini tortib ovozigacha moslashtirib olgach, avval "Do'mbram" termasini, keyin "Namoz" dostonini va xalq o'rtasida ommalashgan termalaridan qo'yidagicha xirgoyi qilar edilar.

Chertganda kelasan sen o'zing tobga,
Dostonim sig'maydi bitta kitobga.
Tez-tez chopib bordim yana Kitobga,
Qarshi, Shaxrisabzni ko'rgan, dumbram!

Nomard yigit bu majlisga bo'ylamas,
Avji kelsa Nurmon gapni o'ylamas.
Yorib yoqsam bitta choydish qaynamas,
Senday yog'och o'tin bo'lgan do'mbram.

Yig'ib obsan ulfatlaring g'amini,
Egang olsin bir ozgina damini.
Damin olib aytib berar kamini,
Ro'mol jozar vaqti bo'ldi jonivor!

Samarqand dostonchilik maktabi – o'zbek dostonchilik maktabining bir yo'nalishi bo'lib, mazkur hududda yashayotgan xalqning etnik tarkibi, kelib chiqishi, tarixan qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlari ushbu uslubning o'ziga xosligini belgiladi. O'zbek aholisining ko'pchilik qismi azaldan yarim ko'chmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligi sababli aynan, shu jarayonlarga bog'liq baxshilar tomonidan ko'ylangan xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. - T., 2009
2. Ўзбек халқ қаҳрамонлиқ достони. Тошкент, Шарқ нашриёти -1998.
3. BAXSHI SHOIRLAR ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI VA FOZIL YO'LDOSH O'G'LINING O'ZBEK DOSTONCHILIK MAKTABIDA TUTGAN O'RNI. Dildora

Annakulova Baymuratovna "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022

4. AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR Mohigul Gulomovna Akbarova "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz> Volume 4 Issue 6 / December 2023